

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025**Accepted:** 1 October 2025**Published:** 10 October 2025*Article / Original Paper***THE CONCEPT OF ACCUSATION, ITS TYPES AND PLACE
IN CRIMINAL PROCEDURE SYSTEM****Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich**

Independent researcher of the Berdaq Karakalpak State University

Abstract. This article analyzes, from both a scientific-theoretical and practical perspective, the role of the institution of accusation in the system of criminal procedural law, its concept, and its types. The subject of the study comprises the norms that define the legal nature of the institution of accusation, while the topic focuses on the formation, development, and functional significance of accusation within the legal system. The aim of the research is to reveal the essence of the institution of accusation, classify its various forms, and determine its role as a mechanism that ensures a balance between the interests of the state and the individual in the criminal process. The relevance of the topic is determined by the fact that the institution of accusation serves not only as the main instrument for implementing state prosecution but also as a key means of protecting the interests of the victim. The study employs comparative-legal, analytical, generalizing, inductive, and deductive methods. The existence of three types of the institution of accusation—public, private, and semi-public—is substantiated, with their legal nature, scope of application, and specific features of criminal prosecution highlighted. Additionally, the evolution of accusatory activity at the stages of initiating a criminal case, conducting an investigation, prosecutorial supervision, and judicial proceedings is analyzed. The conclusions drawn in the article provide a basis for developing proposals to improve criminal procedural legislation and enhance the effectiveness of justice.

Keywords: accusation, accused, public accusation, private accusation, private-public accusation, criminal prosecution, investigation, prosecutorial supervision, judicial proceedings.

**AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL
HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI****Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-3461-3120>E-mail: u_keulimjay@karsu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayblov institutining jinoyat-protsessual huquq tizimidagi o'rni, uning tushunchasi va turlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning predmeti sifatida ayblov institutining huquqiy tabiatini belgilovchi normalar, mavzusi sifatida esa ayblovning shakllanishi, rivojlanishi va huquqiy tizimdagi funksional ahamiyati tanlangan. Tadqiqotning maqsadi ayblov institutining mohiyatini ochib berish, uning turli ko'rinishlarini tasniflash hamda jinoyat protsessida davlat va shaxs manfaatlarining muvozanatini ta'minlovchi mexanizm sifatidagi o'rnini aniqlashdan iborat. Mavzuning dolzarbligi ayblov institutining nafaqat davlat ayblovini amalga oshirishda, balki jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilishda ham asosiy vosita sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tahliliy, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanilgan. Ayblov institutining uch turi — ommaviy, xususiy va xususiy-ommaviy shakllari mavjudligi asoslab berilgan, ularning huquqiy tabiati, qo'llanish sohasi va jinoiy ta'qibni amalga oshirishdagi o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, ayblov faoliyatining bosqichlari — jinoyat ishini qo'zg'atish, tergov, prokuror nazorati va sud muhokamasi jarayonida uning evolyutsiyasi tahlil qilingan. Maqolada ilgari surilgan xulosalar jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish hamda odil sudlov samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: ayblov, ayblanuvchi, ommaviy ayblov, xususiy ayblov, xususiy-ommaviy ayblov, jinoiy taʼqib, tergov, prokuror nazorati, sud muhokamasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N63>

Kirish. Ayblov instituti jinoyat-protsessual huquqning markaziy va eng muhim boʻgʻinlaridan biri hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, ayblov shaxsga nisbatan jinoyat sodir etganlikda rasmiy ayb qoʻyish orqali jinoyat protsessini yuritishga huquqiy asos yaratadi. Ayblovning mavjudligi sud hokimiyati faoliyatini amalga oshirish, aybdor shaxsni javobgarlikka tortish va ayni paytda uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon boʻladi.

Zamonaviy jinoyat-protsessual huquq nazariyasida ayblovning mazmun-mohiyatini ochib berish, uning turlarini tizimlashtirish hamda mazkur institutning butun protsessual huquq tizimidagi oʻrnini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayblov nafaqat aybdor shaxsga nisbatan davlatning ayb qoʻyish shakli sifatida, balki tortishuv prinsipini amalga oshirishning kafolati sifatida ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, uning tuzilishi va huquqiy tabiati jinoyat-protsessual qonunchilikning odil sudlovni taʼminlashga qaratilgan umumiy maqsadlari bilan uzviy bogʻliqdir.

Material va metodlar. Tadqiqotda jinoyat protsessidagi ayblov tushunchasi, turlari va uning jinoyat-protsessual huquq tizimidagi oʻrni kabi masalalar tahlili boʻyicha qonunchilik normalari, milliy va xorijiy huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi. Materiallar qiyosiy-huquqiy, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlarini qoʻllagan holda oʻrganildi.

Tadqiqot natijalari tahlili. “Ayblov” tushunchasi hozirgi kunda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligida keng qoʻllanilishiga qaramasdan, uning aniq taʼrifi qonunchilikda mavjud emas.

Milliy yuridik adabiyotlar va ilmiy asarlarda “ayblov” tushunchasiga turli xil yondashilganligi guvohi boʻlishimiz mumkin. Xususan, B.N. Rashidovning taʼkidlashicha, “ayblov – vakolatli organlar va shaxslarning jinoyatni ochish, jinoyat sodir etgan yoki jinoyat sodir etilishida aybi boʻlgan shaxsni javobgarlikka tortish, shuningdek, jazolash haqidagi masalalar toʻgʻri hal qilinishini taʼminlash maqsadida ushbu shaxsning aybdorligini isbotlashga qaratilgan faoliyati” [1] hisoblanadi. Boshqa olim F.M. Muxitdinov esa “ayblov” tushunchasiga kengroq taʼrif berishga harakat qilib, “ayblov – bu muayyan vazifani, vakolatni va majburiyatni bajarish yigʻindisi barobaridagi protsessual faoliyatning vujudga kelishi, kechishi va tugallanishini belgilovchi protsessual tartibi” [2] ekanligini taʼkidlaydi. D.Kenjaboyevning taʼkidlashicha, ayblov sodir qilingan jinoiy hodisani tekshirish natijasida yuzaga keladi [3]. Ushbu olimlar ayblov ham muayyan vazifani, yaʼni jinoyat sodir etgan shaxsni aybdor ekanligini eʼtirof etish va uni jazoga tortilishiga erishishga intiluvchi subyektning vujudga keluvchi, kechuvchi va tugallanuvchi faoliyati ekanligi, ayblov jinoyat ishining qoʻzgʻatilishi bilan rasmiy ravishda vujudga kelishi, muayyan tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali kechishi, shaxs jazoga tortilishi (yoki oqlanib, hukm kuchga kirishi) tufayli tugallanishi haqidagi fikrlarni ilgari surishadi.

Yuqoridagi fikrlarga qisman qoʻshilib, ayblov jinoyat ishlarini yuritish faoliyati bilan bevosita bogʻliqligi, ammo jinoyat ishini qoʻzgʻatishdan oldingi boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining (keyingi oʻrinlarda — JPK) 221-224-moddalariga asosan shaxsni gumon qilish asoslari boʻyicha ushlab turish mumkinligi

to'g'risidagi protsessual qoidaga e'tibor berish o'rinli ekanligini ta'kidlaymiz. Nazarimizda, qonun chiqaruvchi jinoyat ishini qo'zg'atishdan avval ham muomalaga layoqatli har qanday shaxsga jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlashga huquq berishi, ushlangan shaxsning maqomi gumon qilinuvchiga tenglashtirilishi hamda unga himoyachi olish huquqi berilishi unga nisbatan ayblov faoliyati norasmiy ravishda boshlanganidan darak beradi [4]. Shuningdek, JPKning 226-moddasining ikkinchi qismiga ko'ra, ushlab turish muddati tugagunga qadar va asoslar mavjud bo'lganda shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi, unga ayb e'lon qilinishi, so'roq qilinishi va ehtiyot chorasini tanlash haqidagi masala hal qilinishi zarur. Shu sababli ham ayblovning vujudga kelishi sifatida jinoyat ishining qo'zg'atilishini emas, balki shaxs JPKning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ushlangan paytni yoxud shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi va unga ayb e'lon qilish vaqtini olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har doim ham shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish va unga ayb e'lon qilish vaqti jinoyat ishini qo'zg'atish vaqti bilan bir vaqtda bo'lmasligi mumkin. Shu o'rinda protsessualist olim A.Sharafutdinovning nazariy qarashlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning fikricha, jinoyatchining aybini u ushlangandan keyin emas, balki ushlangunga qadar ham isbotlash choralari ko'rish lozim [5].

Bu ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, "ayblov" tushunchasi jinoyat-protsessual huquq tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lib, jinoyat ishlarida shaxsning aybini isbotlash va ayblovni rasmiylashtirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Jinoyat-protsessual huquq nazariyasida ayblovning kim tomonidan va qanday shakllarda amalga oshirilishiga bog'liq ravishda tasniflanadi: 1) **xususiy** (*jabrlanuvchining shikoyatiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atiladigan*) **ayblov**; 2) **ommaviy** (*davlat*) **ayblov**; 3) **aralash** (*xususiy-ommaviy*) **ayblov**.

Ommaviy ayblovning mazmuni shundan iboratki, bunda ayblov tergovga qadar tekshiruv yoki tergov organi tomonidan, yoxud prokuror tomonidan amalga oshiriladi va shu sababli ham ayrim nazariy adabiyotlarda bu ayblov turi davlat ayblovi deb ataladi. Bunday shakldagi ayblovning o'ziga xosligi shundaki, jinoyat ishini qo'zg'atishning sababi sifatida har doim ham jabrlanuvchining arizasi bo'lishi talab etilmaydi. Hozirgi kunda yuritiladigan ayblovning asosiy qismini ommaviy ayblov tashkil etadi. JPKda aynan qanday jinoyat ishlari ommaviy ayblov tarzida ko'rilishi alohida norma sifatida belgilab qo'yilmagan bo'lsa-da, Kodeksning 321-330-moddalari tahlili ayrim xulosalar keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, bunda jinoyat ishini qo'zg'atish sabablarini batafsil ko'rib chiqish lozim bo'ladi. JPK 321-moddasida jinoyat ishini qo'zg'atish uchun beshta sabab keltirilgan.

Ushbu sabablardan barchasi orqali ommaviy ayblov amalga oshirilishi mumkin. Xususiy ayblov shaklida esa jinoyat ishini qo'zg'atish sababi sifatida faqat jabrlanuvchining shikoyati ko'rib chiqiladi. Nazarimizda, qonun chiqaruvchi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsining zimmasiga o'z vakolatlari doirasida jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish majburiyatini yuklash orqali jinoyat protsessida ommaviy ayblovning vujudga kelishi va uning rivojlanishiga shart-sharoit yaratgan.

Xususiy ayblov bo'yicha ishlar esa, jabrlanuvchi tomonidan ilgari suriladi, chunki bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi jabrlanuvchining subyektiv idroki va uning oqibatlariga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Natijada xususiy da'vo (xususiy ayblov) jarayoni

yuzaga keladi, unda jabrlanuvchi ayblov — da’voni o’z ixtiyoriga ko’ra boshqaradi: ishni qo’zg’atish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organga shikoyat beradi, ayblanuvchi bilan yarashgani tufayli jinoyat ishi sud tomonidan ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilishi mumkin. JPKning 325-moddasida jabrlanuvchining shikoyati bilan jinoyat ishi qo’zg’atiladigan ishlar sanalgan bo’lib, ushbu modda xususiy ayblov mazmunini o’zida aks ettiradi. D.Sh. Bekmatovanning fikricha, xususiy ayblov tartibidagi jinoiy ta’qib deganda jabrlanuvchining murojaati jinoyat ishini qo’zg’atish hamda uni tugatish uchun asos bo’ladigan jinoiy ta’qib tushuniladi [6].

Xususiy ayblov ishlarining o’ziga xos xususiyatlaridan biri – bu turdagi ishlar jabrlanuvchining shaxsiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo’lib, davlat manfaatlariga bevosita daxl qilmaydi. Lekin davlat jinoyat ishlarini yuritishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish hamda ularning boshqa shu kabi konstitutsiyaviy huquqlarini amalda ta’minlash maqsadida shunday tartib belgilagan. Zero, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga ko’ra, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta’minlaydi, ularga yetkazilgan zararning o’rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi [7].

Garchi xususiy ayblov shaklidagi jinoyat ishlarini yuritishning davlat ayblovi shaklidagi ishlardan ko’ra o’ziga xos xususiyatlari ko’zga tashlansa-da, qonun chiqaruvchi ular bo’yicha tergovga qadar tekshiruv va tergov o’tkazishni, shuningdek, ishni sudda ko’rish tartibi sifatida umumiy tartibda ish yuritishni nazarda tutgan. Tadqiqot davomida ayrim xorijiy davlatlarda xususiy ayblov bo’yicha jinoyat ishini yuritish tartibi qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 147-moddasida [8], Qozog’iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 32-moddasida hamda 47-bobida (407-413-moddalari) [9] va Qirg’iz Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 155-moddasida [10] xususiy (yoki xususiy-ommaviy) ayblov shaklidagi jinoyat ishlarini yuritishning alohida tartibi belgilanganining guvohi bo’ldik. Milliy olimlarimizdan B.N. Rashidov ham xususiy ayblov bo’yicha jinoyat ishini yuritishning alohida tartibda ish yuritish tartibini belgilashni qo’llab-quvvatlagan. Uning fikricha, JPKning xususiy ayblov institutini belgilovchi moddalari (325- hamda 333-moddalari) tahlili natijalariga ko’ra, xususiy ayblovga oid ishlarni yuritish xususiy ayblovga oid ishlarni yuritishni tartibga soluvchi alohida qoidalarda (maxsus bobda), xususan, soddalashtirilgan ish yuritish tartibi: tergovga qadar tekshiruvni o’tkazish, zarur hollarda tergov qilish tartibi va sud majlisini o’tkazish tartibini o’zida aks ettirgan holda belgilanishi lozim [11].

O’ylashimizcha, jinoyat protsessida xususiy ayblov ishlari bo’yicha alohida tartib belgilash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tartib nafaqat jinoiy odil sudlovga erishishda samaradorlikni oshirish, taraflarning huquqlarini to’la ro’yobga chiqarishga hamda jinoyat ishlarini tezroq hal etishga xizmat qiladi. Bunday tartibni joriy etishda ish yuritishning aniq muddatlarini belgilash, taraflarning protsessual huquqlarini to’liq ta’minlash mexanizmlarini yaratish, yarashuv tartib-taomillarini batafsil tartibga solish kabi jihatlariga e’tibor qaratish lozimdir. Shuningdek, xususiy ayblov ishlari bo’yicha soddalashtirilgan tartibni joriy etishda quyidagi istiqbolli jihatlarini prognoz qilish mumkin: birinchidan, u tergov va sud organlaridagi ish yuklamasini kamaytiradi va jinoyat ishini tezroq hal qilish imkonini beradi. Bu esa fuqarolarning odil sudlovga bo’lgan ishonchini oshirishga olib keladi. Ikkinchidan, taraflar

o'rtasida yarashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Soddalashtirilgan tartib doirasida yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish mexanizmini qo'llash osonlashadi. Uchinchidan, protsessual xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa ham davlat, ham fuqarolar uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo'ladi. A.A. Starovoytov ham xususiy ayblov shaklidagi protsessual faoliyatning maqsadi jabrlanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, shuningdek yetkazilgan zararining qoplanishiga erishishdan iboratligini ta'kidlaydi [12].

Keyingi muhokama qilinadigan masala bu – ayblovning xususiy-ommaviy ayblov turi hisoblanadi. Xususiy-ommaviy ayblov turidagi jinoyat ishlari jabrlanuvchining shikoyatiga ko'ra qo'zg'atiladi. Biroq ish qo'zg'atilganidan so'ng jabrlanuvchining ayblovdan voz kechishi ish yuritishga to'sqinlik qilmaydi. Bunga misol tariqasida, jabrlanuvchining ayblanuvchi bilan yarashuvi natijasida ish tugatilishi mumkin bo'lmagan ishlarni kiritish mumkin. Xususiy-ommaviy ayblovdan ikki muhim element birlashadi: xususiy komponent (jabrlanuvchining shikoyati) va ommaviy komponent (davlat ishtirokining majburiyligi va yarashuvga yo'l qo'yilmasligi). Xususiy-ommaviy ishlarda jinoiy ta'qib faqat jabrlanuvchining shikoyati asosida qo'zg'atiladi, ammo jabrlanuvchining kechirishi ishini tugatishga asos bo'la olmaydi [13]. Ayblovning ushbu turi orqali jinoyat-protsessual qonunchilik ikki muhim manfaatni — jabrlanuvchining huquqlarini va jamiyat (davlat) manfaatlarini muvozanatli tarzda himoya qilishga erishadi. Jabrlanuvchining huquqlari ish qo'zg'atish bosqichida ta'minlanadi, keyingi bosqichlarda esa davlat manfaatlarini ustuvor bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida ilgari surilgan mazkur xulosa ayblov institutining ikki asosiy konseptual jihatini tahlil qilish va yoritib berish imkonini yaratadi:

Birinchidan, ayblov davlat organlarining qonuniy faoliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bu holda tergov va surishtiruv organlari professional tarzda jinoyatlarni fosh etish, dalillarni to'plash va shaxsning aybini isbotlash kabi vazifalarni bajaradi. Bu jarayonda davlat organlari qonun doirasida harakat qilib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish kabi muhim funksiyalarni amalga oshiradilar.

Ikkinchidan, ayblov jabrlanuvchining subyektiv xohish-irodasiga asoslangan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni bunda jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishini tugatish, jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashish kabi muhim bosqichlar bevosita jabrlanuvchining istaklaridan kelib chiqadi. Bu xususiy ayblov ishlarida yaqqol ko'rinadi. Bunda davlat jabrlanuvchiga o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatini bergan holda jinoyat haqidagi arizani ko'rib chiqib, jinoyat ishini qo'zg'atadi hamda jabrlanuvchining odil sudlovga erishishi uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Ayblov faoliyatining keyingi bosqichi, shubhasiz, shaxsga qo'yilgan aybni isbotlash jarayoni bo'lib, bu tergov bosqichi – ya'ni surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ishini qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash kabilar amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur bosqichda nafaqat ayblovni tasdiqlovchi, balki ayblanuvchining aybsizligini tasdiqlovchi hamda uni oqlashga asos bo'luvchi dalillar ham o'rganiladi.

Tergov bosqichi ayblov faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning doirasida prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi shaxsga nisbatan ilgari surilgan ayblovning qonuniy va

asosli ekanligini isbotlashga intiladi. Agar tergov jarayonida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslardan biri vujudga kelsa, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi va ayblov faoliyati mazkur nuqtada yakunlanadi.

Biroq, agar tergov jarayonida JPKning 82-moddasida belgilangan ayblovni tasdiqlovchi beshta asosning barchasi mavjud bo'lsa, jinoyat ishi ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasini rasmiylashtirish bilan yakunlanadi va ayblov faoliyatining keyingi bosqichi – prokuror nazorati bosqichiga o'tadi. Ma'lumki, JPKning 384-moddasiga muvofiq, prokuror yoki uning o'rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi yoki surishtiruvchidan ayblov dalolatnomasi bilan kelgan jinoyat ishini o'rganib chiqishi hamda undagi o'n to'rtta muhim jihatni tekshirishi lozim. Mazkur tekshirish jarayoni besh sutka davomida amalga oshiriladi, shundan so'ng prokuror jinoyat ishini sud muhokamasiga yuborish yoki ishni qo'shimcha tergovga qaytarish haqida qaror qabul qiladi.

Ayblov faoliyatining yakuniy bosqichi sud muhokamasidir. Mazkur bosqichda prokuror jinoyat ishlari bo'yicha sud jarayonida ishtirok etib, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi. Sud muhokamasi yakunida sud tomonidan ayblov yoki oqlov hukmi chiqariladi. Mazkur hukm qonuniy kuchga kirishi bilan ayblov faoliyati to'liq yakunlangan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ayblov faoliyatining barcha bosqichlarida aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi saqlanib qoladi va shaxsning qonuniy huquqlari ta'minlanishi shart.

Xulosalar. Tadqiqot davomida olingan xulosalar asosida "ayblov" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

ayblov – bu shaxs protsessual tartibda ushlanishi yoxud unga nisbatan ayb e'lon qilinishi bilan rasmiy ravishda boshlanib, jinoyat sodir etgan shaxsning aybdorligini isbotlash va uni javobgarlikka tortish maqsadida ishlaydigan, muayyan tergov va protsessual harakatlar orqali rivojlanadigan, shaxsga nisbatan jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilishi yoki ayblov hukmi chiqarilishi yoxud oqlanishi bilan tugallanadigan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatidir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, ayblov instituti jinoyat-protsessual huquq tizimining ajralmas va markaziy qismi sifatida davlatning jinoiy ta'qib olib borish funksiyasini amalga oshirish bilan birga, shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi tarixiy, huquqiy hamda ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayblovning xususiy, ommaviy va xususiy-ommaviy shakllari jinoyat-protsessual munosabatlarning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Ayblov instituti bir tomondan, davlat organlarining qonuniy faoliyati va jamiyat manfaatlarini himoya qilish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, jabrlanuvchining shaxsiy manfaatlarini ta'minlovchi huquqiy mexanizm sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Uning mazmun-mohiyati dastlabki bosqich, tergov, prokuror nazorati va sud muhokamasi kabi bir-biriga bog'liq protsessual bosqichlarda ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, ayblov institutini chuqur va tizimli o'rganish jinoyat-protsessual qonunchilik samaradorligini oshirish, aybsiz shaxslarning javobgarlikka tortilmasligi kafolatini mustahkamlash va odil sudlov prinsiplarini amalga oshirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatūra/References:

1. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 30-bet.
2. Жиноят процессида таъкиб фаолиятини такомиллаштиришнинг назарий, амалий ва қонунчилик муаммолари /Ф.М.Мухитдинов; масъул муҳаррирю. ф.д., проф. Р.Ж. Рўзиев; Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик институти - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ нашриёти, 2012. – 6 85.
3. Jinoyat-protsessual huquqi. Maxsus qism. // Mualliflar jamoasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. 75-bet.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2003 йил 19 декабрдаги 17-сонли «Гумон қилинувчи ва айбланувчини ҳимоя ҳуқуқи билан таъминлашга оид қонунларни қўллаш бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарорининг 8-банди — <https://lex.uz/docs/-1453755>
5. Шарафутдинов А. Дастлабки тергов фаолиятининг стратегик йўналишлари // Ҳуқуқ. Право. Law, 2005. Апрель-июнь. -Б. 45.
6. Бекматова Д.Ш. Ўзбекистон Республикасининг жиноят процессида жиноий таъкиб функциясининг шаклланиши ва уни такомиллаштириш: Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис. автореф. – Т., 2020. – Б.15.
7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 года № 174-ФЗ - [https://continent-online.com/Document/?doc_id=30407315#pos=6](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30407315#pos=6;);
9. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V - [https://continent-online.com/Document/?doc_id=31575852#pos=4](https://continent-online.com/Document/?doc_id=31575852#pos=4;);
10. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 129 - [https://continent-online.com/Document/?doc_id=36639004#pos=6](https://continent-online.com/Document/?doc_id=36639004#pos=6;);
11. Рашидов Б. Н. Проблемы, связанные с механизмом применения института частного обвинения по Уголовно-процессуальному законодательству Республики Узбекистан //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 7 (152). – С. 74-78.
12. Старовойтов А.А. Особенности производства по делам частного обвинения: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2005. – С.6.— URL: <https://www.dissercat.com/content/osobennosti-proizvodstva-po-delam-chastnogo-obvinieniya/read>
13. Ouziel L. M. Prosecution in Public, Prosecution in Private //Notre Dame L. Rev. – 2021. – Т. 97. – С. 1071.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).